

Ta'lim Strategiyalari Qanday Ma'noni Anglatadi Va Uning Turlari

Qo'chqorova Zulfizarxon

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti o'qituvchisi

Maqsudova Mubinaxon

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs

Annotatsiya: Hozirgi kunda ta'limga va yangi tilini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'quvchilarni ongli va bilimli, kelajakda ma'lum bir kasbning egasi bo'lishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Nafaqat til o'rganishda balki, ta'lim sohasida ham yangiliklar bo'lmoqda. Til o'rgatuvchilar o'quvchilarga ta'lim strategiyalari orqali yangi tilni o'rgatish va uni hayotda tatbiq qilishda foydalanilmoqda. O'rganish strategiyalari odamlarning yangi bilim va ko'nikmalarni olish uchun foydalanadigan ma'lumotlar va ko'nikmalarini saqlash uchun foydalanadigan maxsus usullardir. Ushbu maqola ta'lim strategiyalari va ularning turlari haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Strategiya, kategoriya, tanqidiy fikrlash, akademik sharoit, takomillashtirish, mantiqiy jarayonlar, mantiqli va tizimli yondashuv, kontekst.

Kun sayin shiddat bilan o'zgarayotgan zamonda, ta'limga bo'lgan e'tibor kundan kunga o'sib bormoqda. Nafaqat, univertsitet talabalari, balki maktab yoshidagi bolalar o'rtasida ham ta'lim ko'nikmalarni puxta egallash zamon talabi bo'lib kelmoqda. Ammo, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida, chet tillarini o'rganish jarayonida ta'lim strategiyalari yetishmasligi, chet tillarini o'rganishda ba'zi muammolarga duch kelishi orqali ularning o'qishga, ta'limga bo'lgan ishtiyoqi sustlashishiga olib keladi. Boshlang'ich sinf davri bu bilimlar kalitidir. Bu davr bolalarni faol, ijodkor, ma'naviy yetuk inson bo'lib yetishishining ilk debochasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "Boshlang'ich ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi" farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi" qarori Respublikamizda ta'lim muassasalariga qaratilgan e'tiborlardan biri bo'ldi. Ta'lim strategiyalari o'quvchilarning o'zlarini rivojlantirish, motivatsiyalarini oshirish, nazariy bilimlarni amaliyotga aylantirish, guruhda ishlash, guruh a'zolari bilan hamkorlik qilishni o'rganish va texnologiyalardan foydalanish jarayonini o'rganishga yordam beradi.

O'rganish strategiyalar ta'lim jarayonini samarali va effektli qilishga va o'quvchilarning o'zlashtirilgan ta'limni qabul qilishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, bu strategiya o'quvchilarning talablarini qondirish va ularning individualligini hisobga oladigan ta'lim muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'rganish strategiyalari, ma'lumotlarni olish, saqlash va qo'llash uchun murakkab texnikalar va usullar bilan bog'liqdir. Ular ma'lumotlarni tuzish, eslab qolish, muammolarni hal qilish va samarali o'qish odatlari kabi usullarni o'z ichiga oladi. Ular har bir insonning o'rganish uslubiga moslashtirilgan va amaliyot yordamida rivojlanadi va yaxshilanadi. O'rganish strategiyasi ma'lumotlarni olish va amaliyot usullarini o'rganishni tashkil etish uchun

yaratilgan texnikalar va usullardir. O'rganish strategiyasining vazifalaridan biri o'quvchilarda o'zlashtirilgan o'rganish usullarini rivojlantirish va ularning o'zlashtirilgan maqsadlariga erishishlarini ta'minlash. Bu esa o'quvchilarning o'zlashtirilgan maqsadlariga tezroq erishishiga yordam beradi. Bu strategiyalardan o'quvchilar asosan ma'lumotlarni tahlil etish va ularni ongli ravishda tushunish, chet tillarini o'rganishda foydalanadi.

O'qitish strategiyalari bilan o'rganish strategiyalari o'rtasida farq bor. O'qitish strategiyasi o'quvchilarga ma'lumotlarni tushunishga yordam bersa, o'rganish strategiyasi esa o'quvchilarga ma'lumotlarni o'zlashtirish va ularni amaliyotda qo'llashga yordam beradi. Ta'limda, ilim olishda o'zaro raqobat bo'lsagina bilim musthkamlanadi. Naiman, Frohlich, Stern, and Todesco (1978) ta'kidlaganidek "to study critically the different inventories of learning strategies and techniques and to develop an exhaustive list, clearly related to a learning model" (p. 220). Shuningdek, muvaffaqiyatli til o'rganuvchilar bo'yicha oldingi tadqiqotlarga asoslanib, Ellis (1994) yaxshi yoki muvaffaqiyatli o'quvchilarning beshta asosiy jihatini umumlashtirdi, jumladan: "a concern for language form; a concern for communication; an active task approach; an awareness of the learning process; and a capacity to use strategies flexibly in accordance with task requirements" (p. 546)

Ta'lim strategiyasi - bu atama odamlarning qaysi o'qitish yoki o'rganish usuli eng samarali ekanligi jihatidan farq qiladigan tushunchalarni anglatadi. Ta'lim uslublari nuqtai nazarida maktab, universitet, shuningdek, akademik bo'lmagan sharoitlarda o'rganish strategiyalari mazmunini o'rganish yoki boshqa vazifalarni yanada samarali bajarish uchun shaxsning muayyan ko'nikmalar to'plamini tashkil qiladi (Schumaker va Deshler, 1992). O'rganish strategiyasi bo'yicha ko'rsatmalar o'quvchilarga qanday qilib chet tillarini o'rganish va muammolarni hal qilish va muvaffaqiyatga erishish uchun o'rgangan narsalaridan qanday foydalanishni o'rgatish orqali faol o'quv jarayonini osonlashtiradigan strategiyalarga qaratiladi. Ushbu strategiyalar test uchun o'qish rejasini ishlab chiqishni o'rgatish, mazmunni tushunishni nazorat qilish, materiallarni aniqlashtirish va ishni baholashni o'z ichiga oladi. O'z-o'zini tartibga soluvchi ta'limning bu turi muvaffaqiyatli umrbod ta'limning kaliti bo'lib, maqsadlarni belgilash, o'z-o'zini o'rgatish va o'z-o'zini nazorat qilish kabi strategiyalarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Biz o'z izlanishlarimiz davomida ta'lim strategiyalari uchun moslashtirilgan bir necha usullarni tahlil qildik. Bundan ko'rinib turibdiki, o'rganish strategiyasi ma'lum turlarga bo'lindi. Tadqiqotlar davomida o'quvchilarda o'rganish usullari har hil rivojlanganligi isbotlandi. Ba'zi o'quvchilar tinglab tushunsa, uzoq vaqt ma'lumotlarni esda saqlaydi. Boshqa o'quvchilar esa, ko'z orqali o'qilgan ma'lumotlarni esda saqlaydi. Shuningdek, ayrim bolalar ham ko'rib, ham tinglagandan ko'ra, turli o'yin tarzida o'tilgan darslarni har xil mimikalar orqali o'rgatilgan ma'lumotlarni esda saqlab qolish qobiliyatiga ega. Shu bois o'rganish strategisi ham bolalar talabidan kelib chiqib turli guruhlariga bo'linadi.

Ta'lim uslublari ta'limga aloqadorligi haqida eng keng tarqalgan nazaryalar mavjud , ammo eng yagona gipoteza bu Meshning gipotezasi bo'lib, ko'rsatma o'quvchining afzalliklariga mos keladigan formatda, eng yaxshi tarzda taqdim etilishi deya ataydi. O'rganish strategiyasi (**Learning style**) to'rt turi mavjud. Ular o'quvchiga ilim o'rganishda juda samarali ta'sir ko'rsatadi. Negaki, yuqorida ta'kidlaganimizdek, barcha o'quvchi har xil eslab qolish, o'qish, o'rganish xususiyatiga ega. Shuning uchun bu metodik usullar o'quvchilarga foydalidir. Learning style o'z ichiga ko'rish (**visual**), eshitish va tinglash (**auditory**), ma'lumotlarni ko'rish yoki eshitish emas, balki, bajarish orqali eslab qoluvchi kishilar (**kinesthetic**), yozish va o'qish orqali eslab qoluvchi kishilar esa (**reading \ writing**) guruhlariga kiradi.

Bundan tashqari o'rganish strategiyasi ba'zi turlarni ham o'z ichiga oladi ;

1. Tuzish: Ma'lumotlarni kichikroq va boshqaruvchi qismlarga bo'lish va jadval tuzish orqali o'rganish usuli.
2. Esab qolish: Ma'lumotlarni eslab qolish uchun mnemonik vositalar, tasavvur qilish texnikalari yoki takrorlashdan foydalanish usuli.

3. Muammolarni hal qilish: Muammolarni hal qilish yoki vazifalarni bajarish uchun mantiqli va tizimli yondashuvlarni rivojlantirish.
4. Kritik fikrlash: Ma'lumotlarni baholash va ayni shu jarayon orqali ma'lumotlarga e'tibor berib, muammolarni hal qilish usuli.
5. Samarali o'qish odatlari: O'qish uchun samarali dasturlar va texnikalar rivojlantirish, masalan, vaqt boshqarish, faol o'qish va eslab qolish ko'nikmalarini yanada rivojlantirish usuli.
6. O'z-o'zini baholash: O'z o'zini o'rganish jarayonida baholash, kuch va zaifliklarni aniqlash va o'zini tanqidlar orqali rivojlantirish usuli.

XULOSA

Biz bu maqola orqali o'rganish strategiyalari orqali mantiqiy jarayonlarni o'rganishda fikrlash, material bilan faol ravishda ishlash va hissiyotlarni boshqarishda yordam berishini aniqladik. Hozirgi kun nuqtai nazari bilan aytadigan bo'lsak, bu strategiyalar o'rganuvchilarga ma'lumotni qulay usulda o'rganish, tushunish va qo'llashda yordam beradi va o'quvchilar o'zlarini rivojlantirishda, chet tillarini tez va oson o'rganishda foydalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. U. Avlayev, S. N. Jo'rayeva, S. P. Mirzayeva " Ta'lim metodlari" o'quv uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti Toshkent - 2017
2. M. To'xtaxo'jayeva "Pedagogika", "O'qituvchi" - 2010
3. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" T., 2000 y O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev "Pedagogika" T., "Talqin" 2008 y A. To'xtaboev, A. Eraliev "Tashkiliy xatti-xarakatlar" Andijon., "Xayot" 2001 y R. Mavlonova "Pedagogika" T., "O'qituvchi" 2004
4. Chamot, A. U., & Kupper, L. (1989). Learning strategies in foreign language instruction. *Foreign Language Annuals*, 13-24.
5. Cheng, X. (2000). Asian students' reticence revisited. *System*, 28, 435–446